

O'ZBEK XALQI NOMODDIY MEROSINI SAQLAB QOLISHDA MAHALLIY VA XORIJIY TASHKIOTLAR O'RNI

Askarov Mirzoxid Maxammadjon o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

mirzokhid.askarov90@gmail.com

Nazarova Saodat Taufikovna

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

saodat_nazarova@yahoo.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonning boy madaniy va tarixiy an'analarini asrab-avaylashda mahalliy va xalqaro tashkilotlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Mahalliy tashkilotlar, xususan, davlat idoralari, madaniyat markazlari va nodavlat tashkilotlar, o'zbek xalqining nomoddiy merosini saqlash, qayta tiklash va ommalashtirishda muhim rol o'ynayotganligi ko'rsatiladi. Shuningdek, YuNESKO kabi xalqaro tashkilotlarning ham hamkorlikdagi loyihalari va dasturlari orqali merosni xalqaro miqyosda targ'ib qilishga qo'shgan hissasi yoritiladi. Maqolada, shuningdek, mahalliy va xorijiy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikning samaradorligi va uning davomiyligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar haqida xulosalar keltiriladi. Nomoddiy madaniy merosni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish har ikkala tashkilotlarning uzviy hamkorligiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: YuNESKO, Boysun tumani madaniyati, Shashmaqom, Katta ashula, Askiya, Navro'z, Palov, Xorazm lazgisi, Miniatyura san'ati, Baxshichilik san'ati, Ipakchilik, Xo'ja Nasriddin latifalari, Tazhib.

АННОТАЦИЯ

В статье под названием "Роль местных и международных организаций в сохранении нематериального культурного наследия узбекского народа" рассматривается важность местных и международных организаций в защите богатого культурного и исторического наследия Узбекистана. В статье подчеркиваются усилия местных организаций, включая государственные учреждения, культурные центры и неправительственные организации, по сохранению, восстановлению и популяризации нематериального наследия узбекского народа. Также освещаются вклад международных организаций, таких как ЮНЕСКО, которые способствуют

продвижению этого наследия на мировом уровне через совместные проекты и инициативы. В статье делается вывод о необходимости продолжительного сотрудничества между местными и иностранными организациями, а также определяются меры, необходимые для обеспечения устойчивости этих усилий. Сохранение и передача нематериального культурного наследия будущим поколениям зависят от постоянного взаимодействия между этими организациями.

Ключевые слова: ЮНЕСКО, культура Байсунского района, Шашмаком, Большая песня, Аския, Навруз, Пилов, Хорезмские лазгиси, Искусство миниатюры, Бахшиликское искусство, Шелкоделие, Анекдоты Ходжи Насриддина, Тажиб.

ABSTRACT

This article discusses the importance of both local and international organizations in safeguarding Uzbekistan's rich cultural and historical heritage. It highlights the efforts of local organizations, including government bodies, cultural centers, and non-governmental organizations, in preserving, restoring, and promoting the intangible heritage of the Uzbek people. Furthermore, the article sheds light on the contributions of international organizations such as UNESCO, which play a key role in promoting this heritage globally through joint projects and initiatives. The article concludes by emphasizing the effectiveness of collaboration between local and foreign organizations and outlining measures necessary to ensure the sustainability of these efforts. The preservation and transmission of intangible cultural heritage to future generations depend on the continuous cooperation between these organizations.

Key words: UNESCO, Boysun district culture, Shashmaqom, Big song, Askiya, Navroz, Pilov, Khorezm lazgisi, Miniature art, Bakhshchilik art, Silk making, Khoja Nasriddin's anecdotes, Tazhib.

KIRISH

Nomoddiy madaniy meros ma'lum bir madaniyatning moddiy bo'lmagan, ko'pincha tarixning ma'lum bir davrida ijtimoiy urf-odatlar tufayli vujudga kelgan mulkidir. Kontseptsiyada jamiyatdagi xatti-harakatlarning usullari va vositalari, shuningdek, ma'lum bir madaniy iqlimda ishlashning rasmiy qoidalarini belgilab beriladi. Bularga ijtimoiy qadriyatlar va an'analar, urf-odatlar, estetik va ma'naviy e'tiqodlar, badiiy ifoda, til va inson faoliyatining boshqa jihatlari kiradi. Moddiy predmetlar ahamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, etnik, diniy va falsafiy qadriyatlari fonida sodir bo'lgan harakat sifatida talqin qilish mumkin.

Nomoddiy madaniy meros tushunchasi urf-odatlarni, o‘ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko‘nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog‘liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o‘z navbatida hamjamiyatlar, guruhlar tomonidan, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi.[1]

Avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o‘z tarixiga bog‘liq holda yaratiladi va bu ularda o‘ziga xoslikni, vorislik tuyg‘usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga ko‘maklashadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekiston xalqi nomoddiy madaniy merosi o‘ta boy va xilma-xil bo‘lib, uni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosdagi dolzarb vazifadir. Bu borada mahalliy va xalqaro tashkilotlarning roli katta. Mazkur sohada olib borilgan tadqiqotlarni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

UNESCO roli

UNESCO tomonidan O‘zbekistonning nomoddiy madaniy merosini himoya qilish bo‘yicha qabul qilingan xalqaro konvensiyalar muhim ahamiyatga ega. Xususan, "Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish konvensiyasi" (2003) mahalliy tashkilotlarning faoliyatiga yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi. Bu konvensiya asosida O‘zbekistondagi bayramlar, an’anaviy hunarmandchilik, xalq musiqasi va boshqa meros turlari ro‘yxatga olingan.

Mahalliy tashkilotlar faoliyati

Mahalliy tashkilotlar, masalan, O‘zbekiston Madaniyat vazirligi, hunarmandchilik uyushmalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va nodavlat tashkilotlar o‘z hissasini qo‘shmoqda. Ular mahalliy an’analarni targ‘ib qilish, hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash, o‘quv dasturlari va mahorat darslarini tashkil qilish orqali merosni avaylashga ko‘maklashadi.

Akademik tadqiqotlar va manbalar

Ushbu mavzuda o‘zbekistonlik va xorijiy olimlar tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar va kitoblar, masalan, etnografiya, folklor va san’atshunoslik sohalaridagi asarlar muhim manba hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston xalqlarining urf-odat va an’analari haqida yozilgan akademik tadqiqotlar mahalliy merosni to‘liq anglashga yordam beradi.

Xalqaro grantlar va loyihalar

Jahon banki va YUNISEF kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar mahalliy tashkilotlarga texnik va moliyaviy yordam

ko'rsatmoqda. Ushbu grantlar orqali infratuzilma, o'quv dasturlari va targ'ibot ishlari amalga oshirilmoqda.

Ushbu tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi:

Tahliliy metod: Milliy va xalqaro qonunchilik hujjatlari, xususan, UNESCOning 2003 yilgi "Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish" konvensiyasi tahlil qilindi.

Taqqoslash metodikasi: O'zbekiston va boshqa davlatlar tajribasi qiyoslandi.

So'rov va intervyyu: Mahalliy hunarmandlar, madaniyat mutaxassislari va xalqaro ekspertlar bilan suhbatlar o'tkazildi.

Statistik tahlil: Mahalliy va xalqaro tashkilotlarning moliyaviy va texnik yordam ko'rsatish holatlari bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi.

NATIJALAR

Tabiiyki, bugungi globalalshuv zamonida nomoddiy madaniy merosni saqlash moddiy obyektlarga qaraganda ancha qiyin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, nomoddiy boyliklarni saqlash aspektlariga quyidagilar kiradi:

- folklor
- og'zaki tarix
- tilni saqlash

O'zbek xalqi nomoddiy madaniy merosini saqlab qolishda mahalliy va xorijiy tashkilotlar muhim o'rinn tutadi. Mahalliy tashkilotlar, ayniqsa, davlat organlari va madaniyat vazirliklari, an'anaviy san'atlar, urf-odatlar, xalqona bilimlar va hunarmandchilik kabi nomoddiy madaniy meros elementlarini saqlashga, o'rganishga va ommalashtirishga mas'uldir. Bular, masalan, muzeylar, madaniyat markazlari, folklor ansamblari va hunarmandchilik assotsiatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, maktablar va universitetlarda ham madaniy merosni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, hukumat tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida"gi 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sun Qonunini amalga tatbiq etish hamda Vazirlar Mahkamasining "2010 – 2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 2010-yil 7-oktabrdagi 222-sun qarori kabi ahamiyatga molik qarorlarni qabul qilinishi natijasida ushbu nomoddiy madaniy meroslarga bo'lgan e'tiborni ham ko'rishimiz mumkin.[2]

Shuningdek, xorijiy tashkilotlar, ayniqsa YUNESKO O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosini saqlash va uni dunyoga tanitish borasida katta rol o'ynaydi. Ular milliy merosni xalqaro darajada e'tirof etishga yordam beradi va

moliyaviy hamda texnikaviy ko‘makni ta’minlaydi. Bundan tashqari, xorijiy fondlar va ilmiy institutlar bilan hamkorlik o‘rnatish orqali nomoddiy merosni hujjatlashtirish, tadqiq qilish va qayta tiklash loyihalari amalga oshirilmoqda.

Mahalliy va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik, bilim va tajriba almashish orqali nomoddiy madaniy merosni saqlash va uni kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida amalga oshirilmoqda.

YuNESKO tomonidan tuzib chiqilgan “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya (2003 yil) talablariga muvofiq, ko‘plab xalqlarning madaniy rang-barangligi va an’analarini o‘zida aks ettirgan qadriyatlar insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritib borilmoqda.[3]

YuNESKO ning umumjahon ro‘yxatidagi nomoddiy madaniy meroslar soni 500 dan ortiqni tashkil etib, hozirgi kunda O‘zbekistondan 15 ta [4] meros kiritilgan bo‘lib quyidagi jadvalda buni ko‘rishingiz mumkin.

Nº	Nomoddiy madaniy meroslar nomi	Ro‘yxatga olingan sanasi
1	Boysun tumani madaniyati	2008-yil
2	Shashmaqom	2008-yil
3	Katta ashula	2009-yil
4	Askiya – aql-idrok san’ati	2014-yil
5	Navro‘z	2016-yil
6	Palov tayyorlash madaniyati va urf-odati	2016-yil
7	Marg‘ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi, atlas va adres matolarini to‘qishning an’anaviy texnologiyasi	2017-yil
8	Xorazm lazzisi	2019-yil
9	Miniatyura san’ati, hamkorlikda: O‘zbekiston, Eron va Turkiya	2020-yil
10	Baxshichilik san’ati	2021-yil
11	Ipakchilik	2022-yil
12	Xo‘ja Nasriddin latifalari	2022-yil
13	Tazhib (zeb berish san’ati), hamkorlikda: O‘zbekiston, Eron, Tojikiston va Turkiya	2023-yil
14	O‘zbekistondagi kulolchilik san’ati	2023-yil
15	Iftar va unga oid ijtimoiy-madaniy an’analar, hamkorlikda: O‘zbekiston, Ozarbayjon, Eron, Turkiya	2023-yil

1-jadval. YuNESKO ning umumjahon ro‘yxatidagi nomoddiy madaniy meroslar soni

Yuqoridagi ro‘yxatda aks etgan madaniy meroslar har biri o‘zining ming yillik tarixiga ega. Masalan, Boysun tumani madaniyatini O‘zbekiston janubidagi go‘zal tog‘lar bag‘rida joylashgan bo‘lib, O‘zbekistonning boy merosini asrab-avaylash va

ulug‘lashning kaliti bo‘lgan Boysunning maftunkor kengliklari tashkil etadi. Termizdan bor-yo‘g‘i ikki soatlik masofada joylashgan Boysun zamonda qotib qolgan va qadimiyligi ruhi ufrib turadi. Gap nafaqat arxeologik yodgorliklar markazida, balki bu yerda yashovchi odamlarda ham: ular o‘z ajdodlari an’alarini ulug‘laydilar, qadimiy qo‘shiqlarni ijro etadilar, kundalik hayotda qo‘lda chizilgan sopol idishlar va nafis naqshli so‘zanalardan foydalanadilar. Boysuntov tog‘larida ko‘plab tarixiy obidalar mavjud. Bu yerda Teshiktosh g‘ori, mezolit va neolit davrlariga oid qoyatosh rasmlari, Omonxonaning muqaddas bulog‘i, dinozavr larning izlari borligi bu hudud madaniyatini boyitadi.

Ro‘yxatda keltirilgan merosimiz qadim zamonlarda hukmdorlar saroylarida paydo bo‘lgan shashmaqom mumtoz musiqa janri bo‘lib, zamon sinovidan o‘tgan, she’riy so‘zlari va ijrosi bilan tinglovchilarni maftun etadi. Dutor va doiralarning jozibali ohanglari fors klassiklari asarlari asosidagi mumtoz o‘zbek vokallari bilan yagona simfoniyada uyg‘unlashgan. [5]

Yangi yilning boshlanishini belgilaydigan va 21-mart kuni bahorgi tengkunlik kuni keladigan yorqin va quvonchli bayram hisoblanadigan Navro‘z islomdan ancha oldin paydo bo‘lgan va dastlab quyoshga va tabiat hodisalariga sig‘inish sifatida vujudga kelgan, keyin esa zardushtiy larning rasmiy bayrami sifatida e’tirof etilgan.[6] Navro‘z bayramida O‘zbekiston bo‘ylab ko‘cha va maydonlar musiqa, raqs va an’anaviy chiqishlar bilan jonlanadi. Havo bayramona palov, sumalak, xalisa, nishold kabi taomlarning xushbo‘y hidlari bilan to‘ldiriladi.

O‘zining dillarni to‘lqlantiruvchi ohanglari va jo‘shqin so‘zlari bilan tomoshabinlarni rom etuvchi Katta ashula O‘zbek tilidan tarjima qilinganda “katta, ulug‘vor qo‘shiq” ma’nosini bildiradi va uni “likobcha ashula” deb ham atashadi. Bu nom ijrochi qo‘lida metall patnis yoki plastinka ushlab turganligi sababli tug‘ilgan. Likopchalar yordamida xonanda ovozni tomoshabinlar tomon yo‘naltiradi va o‘z tembrini bezatadi. Katta ashula jo‘rsiz improvizatsiya bilan, lekin bir ritmda ijro etiladi.

Shuningdek, 500 yildan ortiq og‘zaki janr hisoblanadigan, aqli so‘zlar, hazil va ijtimoiy sharhlar bilan tomoshabinlarni o‘ziga jalb qiladigan zukkolik san’ati – askiya ham dunyo tomonidan e’tirof etilgan madaniy merosdir. Askiyani tajribali hikoyachilar “askiyachi” olib boradi. Askiyachi ertaklar, hazillar va latifalarini birlashtirib, tomoshabinlarni jalb qilish va zavqlantirish uchun ko‘pincha joyida improvizatsiya qiladi.

Har birimizning xonadonimizda sevib iste’mol qilinadigan palov ham dunyo e’tirofida ekanligini ta’kidlash lozim. Aniqrog‘i, nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga palovning o‘zi emas, uni tayyorlash an’anasi kiritilgan. YUNESKO ushbu

afsonaviy taom atrofidagi butun jarayon ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi, deb hisoblaydi. O‘zining xushbo‘yligi, ta’mi, murakkab tayyorlanishi bilan mashhur palov odamlarning qalbi va xonadonlarida alohida o‘rin tutadi. O‘zbekistonda palov tayyorlash va berish bilan bog‘liq turli urf-odatlar va marosimlar mavjud. Misol uchun, palovning birinchi va oxirgi qoshiqlari eng xushbo‘y hisoblanadi va ko‘pincha muhim mehmonlar uchun ajratiladi. Yana bir qiziqarli an’ana bu - erta tongda palov yeyishdir. Ovqatlanishda faqat erkaklar ishtirok etadilar va bola tug‘ilishi va to‘ydan dafn marosimi kabi jarayonlar katta oilaviy voqeadir.

MUHOKAMA

O‘zbekni o‘zbekligini bir ko‘rishda namoyon etuvchi belgi bu milliy libosidir. Mana shunday boy merosimizni asrab avaylash maqsadida 2007-yilda atlas gazlama ishlab chiqarishning qadim beshigi bo‘lgan Marg‘ilon shahrida adres va atlaschilik an’analarini asrab-avaylash, kelgusi avlodlar obodligini ta’minalashdek ezgu maqsadni ko‘zlagan “Hunarmandlikni rivojlantirish markazi” tashkil etildi. Marg‘ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi olamiga kirib kelganingizda, siz shunchaki tarix guvohiga aylanib qolmay, uni asrab-avaylash va qayta tiklashda faol ishtirok etasiz. Markaz xodimlari amaliy mashg‘ulotlar, ko‘rgazmalar, yarmarkalar o‘tkazmoqda. [7]

O‘zbekistonning boy madaniy merosini o‘zida mujassam etgan lazgi raqsi Xorazmda tug‘ilgan. 3000 yildan ortiq vaqt davomida raqs tomoshabinga sevgi, ehtiros va qalb haqida gapirib keladi. O‘zbekistonning boshqa an’anaviy raqlariga nisbatan lazgi o‘zining dinamik harakatlari, murakkab oyoq harakati va jo‘sinqin tempi bilan ajralib turadi. Bu quvonch va bayram ruhini ifodalaydi, tomoshabinlarni ritmik o‘yin-kulgiga qo‘shilishga taklif qiladi.

Temuriylar davriga oid miniatyura rasmlari azaldan tarixiy voqealar, diniy hikoyalar va kundalik hayot manzaralarini tasvirlashda qo‘llanilgan. Atoqli miniatyurachi Kamoliddin Behzod O‘zbekiston miniatyura san’atiga yana bir yo‘nalish – sharq portreti janrini qo‘shti. Dastlab miniatyurlar kitoblarning bir qismi bo‘lgan yoki boy zodagonlarning uylarini bezatgan. Bugungi kunda miniatyurachi rassomlar g‘ayrioddiy sabr va e’tibor bilan qog‘oz, papier-mache, teri, yog‘och va matolarda murakkab dizaynlarni yaratadilar.[8]

O‘zbek xalqining qadimiy meroslaridan yana biri bu baxshichilikdir. Baxshichilik – ikki buyuk daryo, Jayxun va Sayxun oralig‘idagi sivilizatsiyalarni yaratish qudratiga ega bo‘lgan ulug‘ ajdodlarimizdan meros. Bu musiqa, hikoya qilish va madaniy merosni hayratlanarli san’at turiga birlashtirgan ko‘p asrlik an’anadir. Baxshi nomi bilan mashhur bo‘lgan iste’dodli san’atkorlar dutor, tanbur,

doira milliy cholg‘ulari ritmida she‘r yoki she‘r aytish mahorati bilan tomoshabinlarni maftun etadi. Baxshi tomoshalarida ishq, qahramonlik, axloq saboqlari mavzulari keng tarqalgan bo‘lib, xalq afsona va dostonlaridan kelib chiqqan. Baxshi ijodi tinglovchilarni tarix va afsonalar o‘zaro bog‘langan dunyoga olib boradi.

O‘zbekiston rahbariyati bugungi kun tashvishlari bilan bir qatorda uzoq kelajak taqdiri va insoniyatning ma’naviy dunyosi haqida qayg‘urayotganligi yaqqol ko‘rinib turganligini ta’kidlash lozim.

2018-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev qarori bilan Nukus va Termiz shaharlarida Xalqaro baxshichilik festivallari yuqori saviyada o‘tkazildi va O‘zbekiston hayotida katta madaniy voqealardan biri bo‘ldi.

Baxshichilik san’atini jahon nomoddiy madaniy merosning Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilishi xalqaro hamjamiyat uchun muhim ahamiyatga ega voqeа bo‘ldi. O‘z navbatida bu qaror baxshichilikni asrab-avaylash va rivojlantirishda bundan buyon O‘zbekiston bilan YuNESKO qo‘lni qo‘lga berib harakat qilishi kerak bo‘ladi.

O‘zbekiston hududida eramizdan avvalgi II ming yillikda paydo bo‘lgan an’ana – ipakchilik yoki ipakchilik san’ati asosan, Farg‘ona vodiysi, Samarqand va Buxoro kabi hududlar O‘zbekistonning ipakchilik bilan mashhur viloyatlari orasida yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bu hududlar ipakchilik uchun ideal iqlim talablariga javob beradi: issiq yoz va yumshoq qish ipak qurti rivojlanishi uchun ajoyib sharoit yaratadi. Buning sharofati bilan O‘zbekiston ipak yetishtirish bo‘yicha dunyoda yetakchi 3 davlat qatoridan joy oldi. Bu sababli ham ushbu san’at shunday e’tirofga sazovor bo‘lgan.[9]

Xoja Nasriddin haqida umringizda bir marta bo‘lsa ham latifa eshitgan bo‘lsangiz kerak. Bu sirli qahramon kim? Aqli, sharqona donishmand va hazil-mutoyiba – bu chol o‘z asarlarida bois illatlarini, ahmoqlik va poraxo‘rlikni masxara qiladi. Nasriddin hazil-mutoyiba tufayli odamlarga yaqin edi, hatto xalq qahramoniga aylandi. Buxoroda hatto bronzada abadiylashtirildi va o‘zining doimiy hamrohi eshak bilan birga an’anaviy binolarning qadimiy muhitiga joylashtirildi. Har yili bahorda Buxoroda Xo‘ja Nasriddin sharafiga humor bayrami o‘tkaziladi.

Badiiy ifoda sohasida yorug‘lik (tazhib) kabi jozibali jozibali va murakkab go‘zallikka ega bo‘lgan hunarmandlar kamdir. Tazhib - diniy va tarixiy kitoblarni zarhal qilish, kalligrafik matnlar yoki naqshlarga oltin bargni yupqa surtish. Oltin bargdan foydalanish san’at asariga yorqinlik baxsh etib, ramziy ma’noda dunyonи yorituvchi ilohiy nur hisoblanadi.

Muqaddas Ramazon oyida quyosh ufqdan pastga tushganda, quyosh botishidan to tong otguncha davom etadigan qattiq ro‘zaning tugashini bildiruvchi iftorlik vaqt keladi. Namozdan keyin oilalar stollarda yig‘ilishadi, ularda xurmo bo‘lishi kerak.

Xurmo va suv bilan iftorlik qilish Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar davridan qolgan oddiylik va poklik ramzi bo‘lgan an’anadir. Iftorlikka har kungi tayyorgarlik nafaqat mazali taomlar tayyorlash, balki xayriya tadbirlari va xayriya tadbirlarida qatnashishni ham o‘z ichiga oladi. Bu fikrlash, minnatdorchilik va hamjamiyatni birlashtiradigan vaqt.

O‘zbekistonda kulolchilik san’atining paydo bo‘lishini ko‘rish uchun o‘tmishga qarasak yetarli bo‘ladi. Qadimgi davrlarga oid arxeologik qazishmalar davomida Rishton shahrida miloddan avvalgi II- I asrlarga oid tandirli hunarmandchilik xonalari topilgan. Bu shahar Buyuk ipak yo‘lidagi mashhur kulolchilik markazi bo‘lgan. Va bugungi kunga qadar butun mamlakat bo‘ylab kulolchilik maktablari faol rivojlanmoqda, ularda hunarmandlarning butun avlodlari ishlaydi.[10]

O‘zbekistonda an’anaviy kulolchilik texnikasi mamlakat landshafti kabi xilmoxildir. O‘ziga xos yashil sir va murakkab gul naqshlari bilan mashhur G‘ijduvon kulolchiligining qadimiy san’atidan tortib, Rishton kulolchiligining nafis ko‘k va oq naqshlarigacha O‘zbekistonning har bir hududi o‘zining madaniy merosini aks ettiruvchi o‘ziga xos uslubga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqining nomoddiy madaniy merosini saqlab qolish mahalliy va xalqaro tashkilotlarning birgalikdagi sa’y-harakatlariiga bog‘liq. Mahalliy tashkilotlar merosni asrab-avaylash va uni ommalashtirishda muhim rol o‘ynab, xalqaro tashkilotlar esa ushbu qadriyatlarni dunyo miqyosida targ‘ib etish va himoya qilishga yordam beradi. Kelgusidagi muvaffaqiyat va barqarorlik uchun har ikki tomonning uzviy hamkorligi talab etiladi. Ana shunday hamkorlik bilan xalqning boy madaniy merosi avloddan-avlodga o‘tadi va yanada keng miqyosda e’tirof etiladi. Shuningdek, o‘zbek xalqining nomoddiy madaniy merosini saqlab qolishda mahalliy va xalqaro tashkilotlarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy tashkilotlar madaniy qadriyatlarni himoya qilish va targ‘ib etishda yetakchi o‘rinni egallaydi, xalqaro tashkilotlar, xususan YuNESKO, esa bu merosni global miqyosda qo‘llab-quvvatlash uchun zarur platformalar yaratadi. Ushbu sa’y-harakatlarning barqarorligini ta’minlash uchun tashkilotlar o‘rtasidagi doimiy hamkorlik va strategik sheriklik zarur. Shu tariqa, boy madaniy meros kelajak avlodlarga yetkaziladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Borisova L.A. Nomoddiy madaniy meros: nazariya va amaliyot. – T.: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti nashri, 2018. – bet. 23.

2. Khalilov R.A. O‘zbekistonning madaniy merosi: muammolar va yechimlar. – T.: Sharq, 2020. – bet. 12.
3. UNESCO World Heritage Centre. Intangible Cultural Heritage. [Online] Available at: www.unesco.org. 2023-yil.
4. Nomoddiy madaniy merosni saqlash va rivojlantirish bo‘yicha strategiyalar. UNESCO nashri. 2023-yil. 17-bet
5. Sayfutdinova G. O‘zbekiston va xorijiy tashkilotlar: hamkorlik va tajriba almashinushi. “Madaniy meros jurnali”. 2017-yil. № 12(4), – B. 56 – 62.
6. Rahmonov B. Xalqaro tashkilotlar va O‘zbekistondagi nomoddiy meros. “O‘zbekistonning zamonaviy muammolari jurnali”, 2022-yil. – B. 34 – 40.
7. Shodmonov J. Mahalliy va xalqaro tashkilotlar: madaniy merosni saqlashdagi roli. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. 2019. 56 – 57 betlar.
8. Tadzhikova F. Nomoddiy madaniy merosni saqlashdagi mahalliy an'analar. “O‘zbekiston madaniyati jurnali”, № 3(2), 2021-yil. – B. 77-84.
9. Xalilov D. Madaniy merosni saqlashda ijtimoiy tashkilotlarning roli. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. 2018. – bet. 56.
10. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. Nomoddiy madaniy meros: muhofaza va rivojlantirish choralar. [Online] Available at: www.madaniyat.uz. 2023.